

ZAMONAVIY JAMIYATNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY SOHALARIDA RO‘Y BERAYOTGAN O‘ZGARISHLARDA O‘QITUVCHILARNING O‘RNI

*Buxoro viloyati Buxoro shahri Osiyo Xalqaro Universiteti 70110501- Ta'lim va
tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Abdullayeva Shoxista Maksudovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda o‘qituvchilarning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Talim ,tarbiya, ijtimoiy faollik, fuqarolik kompetensiya, pedagogik va psixologik, professional va maxsus.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchiga yangi talablarni keltirib chiqardi. Bu keng ko‘lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo‘lgan professional o‘qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta‘lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta‘limning kompetensiya paradigmasiga o‘tish dolzarblashmoqda. Bo‘lajak mutaxassisning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniq amaliy vaziyatda amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limning ustuvor maqsadidir. Shuning uchun ham bolajak o‘qituvchining mutaxassis sifatida shakllanishida pedagogik amaliyot muhim sanaladi. Ushbu davrda talabning tajriba to‘plashi, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi, kasbiy vaziyatlarga moslashuvi ortib boradi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Bo‘lajak o‘qituvchilar amaliyot davrida turli vazifalarni bajarar ekan, Davlat Ta‘lim

Standartida belgilangan ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga alohida ahamiyat berishlari kerak. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Kichik yoshdagi o'quvchining ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olish kerak. Tashqi omillarga ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi, bolaning ijtimoiy hayoti, sharoitlari va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillar - bu bolaning aqliy rivojlanish xususiyatlari, uning yoshiga xos rivojlanishi va individual individual xususiyatlari. Agar bir qator shartlar bajarilsa, boshlang'ich maktab o'quvchilarida ijtimoiy qobiliyatlarni samarali shakllantirish mumkin: Jamoada tegishli rivojlanish muhitini yaratish (o'qituvchi sinfda ishonch va xayrixohlik muhitini yaratishi kerak). Kichik yoshdagi o'quvchi o'zini xavfsiz his qilishi, shu bilan birga bosimni his etishi kerak, o'qituvchi o'zining shaxsiy xususiyatlariga hurmat ko'rsatishi kerak. Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan huquqiy islohotlar, huquqiy - demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlarga yetkazish bugungi kun talabidir. Bu esa, o'z navbatida ta'lim-tarbiya, ayniqsa huquqiy tarbiyani zamonaviy uslublar asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Prezidentimizning "Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yyetarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul", "Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak", deb aytgan fikr-mulohazalari, mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning shaxs, jamiyat va davlat rivoji uchun naqadar muhim va ahamiyatli yekanligini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi. O'quvchi yoshlarga ijtimoiy - huquqiy bilim berishning asosiy maqsadi, ularda ijtimoiy - huquqiy tushunchalarni

shakllantirish va shu asosda huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir. Huquqiy bilim olish jarayonida o'quvchilar Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan o'z huquq va erkinliklarini bilish, ulardan foydalanish va hayotga tatbiq etishga erishishi lozim.

Yoshlarning ijtimoiy - huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat ta'lim muassasalari, balki oiladan boshlanadi. Huquqiy bilimlar hayotda, har xil aniq vaziyatlarda to'g'ri yo'nalish olish, ruxsat yetilgan va taqiqlangan narsalar o'rtasidagi chegarani topa bilish, o'z huquq va manfaatlarini himoya etishning qonuniy yo'llari va vositalarini tanlashga o'rgatadi.

Ijtimoiy - huquqiy bilimlar siyosiy saviyani kengaytiradi, e'tiqodlar shakllanishiga, hayotdagi huquqiy xodisalarni to'g'ri tushunish, huquqiy talablarga ongli ravishda rioya yetish, barcha fuqarolarning ijtimoiy-huquq normalari (qoidalari)ga amal qilish uchun faol kurashishga ko'maklashadi.

Har bir shaxs o'z huquq va erkinliklaridan foydalana bilsa, tushunsa, ko'plab muammolarning oldi olinadi. Qolaversa, o'zgalarning ham huquqlariga xurmat nigohi bilan qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida "Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart" deya ta'kidlagan edi. Umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy madaniyatning negizini huquqiy ong, huquqiy tafakkur tashkil etadi. Huquqiy ong shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, huquqiy normalarda belgilangan talablarning bajarilishi ham shunchalik to'liq va aniq bo'ladi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya, boshqacha aytganda huquqiy ma'rifatni takomillashtirish zarur. Huquqiy ma'rifatning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni

shakllantirish, ya'ni huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini bilish, ularga hurmatni va ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalash bo'lib, u bosqichma-bosqich berilishi lozim. Zamon shiddati jadal, dunyo ham, undagi jamiyatlar ham tez o'zgarimoqda. Biz esa ko'p yillar davomida bu o'zgarishlar shiddatini quvib yetolmadik. Albatta, odamlarimizning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Ammo huquqiy madaniyat darajasi kutilganidek yuksalmadi. Bu bir qancha omillarga bog'liq. Mana shu omillardan biri o'quvchilarga kichik maktab yoshidan boshlab ijtimoiy-huquqiy tarbiya berish metodikasiga alohida e'tibor qaratish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Demak, bugungi o'qituvchi oldida turgan asosiy masala o'quvchiga sifatli bilim berish bilan birga zamon talablari asosida maktab o'quvchilarida huquqiy ongni shakllan tirishga poydevor yaratishimiz, boshlang'ich sinflardan o'quvchilar ongida ijtimoiy-huquqiy tarbiyaning ilk tushunchalarini tarkib toptirishga harakat qilishimiz lozim. Inson yoshligidan qancha keng qamrovli ijtimoiy - huquqiy bilimga ega bo'lsa, shu darajada madaniyatli bo'la boradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi milliy dasturida: «Ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy ta'lim hamda tarbiyasini takomillashtirish», - zarurligi alohida ta'kidlangan. Shuning uchun huquqiy ta'limtarbiyaning maqsadi har bir o'quvchiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlaridan kam bo'lmagan.

Adabiyotlar

1. Ульяницкая Т.В. У 51 Ориентация будущего учителя начальных классов [монография] / Казань: Издательство «Отечество», 2012. - 138 с.
2. Tojiboyeva G.R., Pulatova D.T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 issn: 21811385 scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804, 209-215
3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti.
4. И.В. Наумов. Социальная практика: «Формирование социальных компетенций у детей младшего школьного возраста средствами авторской сказкотерапии». Москва, 2018, 27 стр.